

**INKLYUZIV TA'LIM: O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDAGI ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR VA HUQUQIY ASOSLAR****Zairov Asadbek***Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada inklyuziv ta'limning mohiyati, huquqiy asoslari, O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar jarayonida inklyuziv ta'limga berilayotgan e'tibor tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'lim sohasidagi xalqaro tajriba va huquqiy normalar hamda ularning O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiyasi yoritiladi. Muallif inson huquqlari, ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari nuqtai nazaridan inklyuziv ta'lim tizimini joriy эмушнунг dolzarbligini asoslab beradi.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, teng imkoniyat, nogironligi bo'lgan shaxslar, inson huquqlari, ta'lim tizimi, islohotlar, ijtimoiy adolat.*

KIRISH

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim tushunchasi global miqyosda inson huquqlari va ijtimoiy adolat bilan chambarchas bog'liq fundamental tamoyil сифатида эътироф этилмоқда. Barcha qatlamdagi bolalar, xususan, nogironligi bo'lgan shaxslar, ijtimoiy noqulay vaziyatga tushib qolgan yoki ehtiyojmand guruhlar farzandlarining ta'lim olish huquqi Konstitutsiya va халқаро хужжатлар билан кафолатланган. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning huquqiy asoslari izchil shakllаниб бормоқда.

Asosiy qism

Inklyuziv ta'limning tushunchasi va asoslari - YUNESKO ta'rifiga ko'ra, inklyuziv ta'lim bu barcha bolalarni, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy holatlaridan qat'i nazar, bir xil ta'lim tizimida o'qitish va rivojlantirishga asoslangan yondashuvdir. U farqlarga hurmat, tenglik va inklyuziya tamoyillariga asoslanadi. Bugungi zamonaviy dunyoda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning zamonaviy usullari va innovatsiyalarini keng tatbiq qilish nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada Xitoyning ta'lim bo'yicha Milliy tadqiqot Instituti YUNESKOning maqsadli grant mablag'lari yordamida alohida ehtiyojli bolalar ta'limini qo'llab-quvvatlash maqsadida WEB resurs markazini tashkil etish bo'yicha innovatsiya dasturini ishlab chiqdi. Bu resurs markazning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Alohida ehtiyojli bolalar va yoshlarni ta'lim tizimiga kiritishda ma'lumotlarni olish bo'yicha resurslarni aniqlash;
2. Maxsus ehtiyojli shaxslar bilan aloqa o'rnatish;
3. Ma'lumotlar bankida turli ta'limiy va rivojlantiruvchi materiallarni to'plash;
4. Internet tizimi orqali mutaxassislar maslahatini uyushtirish;
5. WEB resurs markazi foydalanuvchilari orasida tajriba va bilimlar almashishni tashkil qilish;
6. Integratsiya muammolarini hal qilish vositalarini izlash.

Chet davlatlar bilan bu boradagi hamkorlik uchun imkoniyatlar yaratish (YUning CHen, ma'lumotlari 2000 yil). Shunday qilib Xitoyda Internet tizimidagi elektron resurs

markaz orqali mutaxassislarning bilim va malakalaridan foydalangan holda butun mamlakat hududidagi alohida ehtiyojli bolalar va shaxslarning ta'lim olish talabini qondirish imkoniyati paydo bo'ldi. Mazkur dastur maxsus ehtiyojli bolalarni ta'lim jarayoniga kiritish bo'yicha boshqa chora-tadbirlarga qo'shimcha yordam sifatida qo'llaniladi. Ayrim hollarda esa ta'lim berish va rivojlantirish imkonini beruvchi yagona vosita bo'lib xizmat qiladi. Bundan ko'rish mumkinki, inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish bu zamonaviy ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni realizatsiya qilish bilan samarali bo'ladi. Biroq tan olish kerakki, ham nazariy jihatdan ham amaliy jihatdan inklyuziv ta'lim masalalarini tadqiq etish va zamonaviy taraqqiyot yutuqlari bilan boyitish haligacha sustligicha qolmoqda. Bunga sabab sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin. Birinchidan, inklyuziv ta'limni rivojlantirishni bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda rag'bat hissi yetarlicha emas. Ikkinchidan, sohada rivojlanishga qaratilgan start-up loyihalar va ularni moliyalashtiradigan grant mablag'lari pastligicha qolmoqda. Eng muhim sabab bu inklyuziv ta'lim tushunchasining mazmun-mohiyatini to'liq tushunmaslik va ahamiyatini keng ochib bermaslikdadir. Inklyuziv ta'limning nazariy ahamiyati va huquqiy maqomi yuqoridir. Bunga birgina misol tariqasida aytish mumkinki, har bir insonning bilim olish huquqi "Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi" va jahon mamlakatlarida milliy darajadagi asosiy qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan. Inklyuziv ta'limning yana bir ijobiy xususiyati bu imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilarni jamiyatga faol integratsiyalash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va ijtimoiy tenglik qaror topdirishda muhim rol o'ynaydi. Ammo ba'zi hollarda inklyuziv ta'limni faqat alohida toifadagi ta'lim oluvchilarni maxsus maktablar tashkil etish va uylarda o'qitish tushuniladi. Masalaga bir tomondan qaralganda aqliy yoki ruhiy o'sishda nuqsoni bo'lgan ta'lim oluvchilar uchun tor doiradagi qulaylik bo'lishi mumkin. Lekin har bir imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchining boshqa ta'lim oluvchilar bilan teng ravishda umummilliy rivojlanishga ijobiy ta'sir qilmaydi. Shu jihatdan olib qaraganda alohida toifadagi ta'lim oluvchilarni maxsus o'qitish tizimi bu inklyuziya emas, balki alohidalash ya'ni ekslyuziyadir. Bu esa ta'limda inklyuziyaning ahamiyati to'liq ochib berilmaganligi va uning mazmun-mohiyati tushunib yetilmaganidan dalolat beradi. Inson huquqlari va erkinliklari sohasida barchaning huquq va manfaatlarini ta'minlashni ustuvor vazifa qilib qo'ygan O'zbekiston ayni inklyuziv ta'lim tizimini yanada takomillashtirib borayotganini ko'rish mumkin. Buni nogironlik belgilari og'ir bo'lmagan o'quvchilarni sog'lom tengdoshlari bilan bir qatorda an'anaviy ta'lim standarti asosida bilim olish uchun shart-sharoitlar yaratilayotganidan guvohi bo'lish ham mumkin. Bu boradagi eng to'g'ri yo'l ham ta'lim muassasalari faoliyati, o'qitish jarayonlari va infratuzilmasini inklyuzivlashtirish ayni muddaodir.

Inklyuziv ta'limning xalqaro-huquqiy asosi - BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi (2006), "Ta'limda diskriminatsiya qilishga qarshi kurash to'g'risidagi" Konvensiya (1960) va boshqa xalqaro hujjatlar inklyuziv ta'limni kўллаб-қувватлайди.

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim bo'yicha olib borilayotgan islohotlar

So'nggi yillarda: 2019 yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun қабул қилинди, 2021 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori қабул

қилинди. Xalq ta'limi, Maktabgacha va Oliy ta'lim vazirliklari тизимида inklyuziv maktab va markazlar tashkil etilmoqda. holda ta'lim olish (kunduzgi);

- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy); dual ta'lim;

- oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
- katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;
- inklyuziv ta'lim;

- eksternat tartibidagi ta'lim.mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash. Ushbu qonun doirasida ta'lim oluvchilar uchun zarur shart-sharoitlarning huquqiy asoslari yaratilganligini va asosiy qonun, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan har kimning bilim olish huquqlari kafolatlanishi va davlat uzluksiz ta'limni rivojlantirishga oid normalarga mutanosibli va qonuniy jihatdan mantiqiy ketma ketlikni ifodalashini ko'rishimiz mumkin. Ta'limni barcha bosqichlari shakl va turlarini kompleks takomillashtirishning asosiy va to'g'ri yo'li bu inklyuziv yondashuv asosidadir.

Amaliy muammolar va takliflar

Inkluziv ta'linga o'tish jarayonida kadrlar tanqisligi, infratuzilmaning mos emasligi, jamiyatdagi stereotiplar va axborot etishmasligi kabi muammolar mavjud.

Buni hal etish uchun quyidagi choralarni ko'rish maqsadga muvofiq:

- O'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida maxsus kurslar va malaka oshirish dasturlarini joriy etish;
- Maktablar infratuzilmasini nogironligi bo'lgan bolalar uchun moslashtirish, jumladan panduslar, maxsus sinf jihozlari, eshitish va ko'rish qurilmalari bilan ta'minlash;
- Ota-onalar va mahalla fuqarolar yig'inlarida muntazam ravishda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, jamiyatdagi stereotiplarni bartaraf etish;
- Davlat va nodavlat sektorlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali muammoni kompleks yondashuv asosida hal etish.

Taklif va tavsiyalar

Inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini takomillashtirish: Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro standartlarga muvofiq holda tahlil qilish va inklyuziv ta'lim bo'yicha alohida qonun loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik kadrlarni maxsus tayyorlash tizimini kuchaytirish: Maxsus pedagogika, defektologiya, psixologiya va ijtimoiy pedagogika yo'nalishlarida mutaxassislarini ko'proq tayyorlash, ular uchun amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini joriy etish zarur.

Tibbiy-psixologik-pedagogik xizmatlar tizimini kengaytirish: Maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi psixologik va logopedik xizmatlar keng joriy etilishi lozim.

Ta'lim muassasalarining jismoniy muhitini moslashtirish: Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay kirish-chiqish, harakatlanish, eshitish va ko'rish imkoniyatlarini hisobga olgan texnik vositalar bilan jihozlash kerak.

Jamoatchilik ongini oshirish va diskriminatsiyaga qarshi kurash: Aholi o'rtasida inklyuzivlik madaniyatini shakllantirish, ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyat a'zolari uchun muntazam seminar va treninglar o'tkazilishi zarur.

Raqamli texnologiyalar va masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan keng foydalanish: Texnologik infratuzilmani rivojlantirish orqali barcha bolalar uchun ta'limga kirishni osonlashtirish.

Moliyaviy rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish: Inklyuziv ta'limga faol hissa qo'shayotgan pedagoglar, muassasalar va nodavlat tashkilotlar uchun grantlar, mukofotlar va boshqa moliyaviy ko'mak shakllari joriy etilishi kerak.

Xulosa

Inklyuziv ta'lim – bu nafaqat pedagogik, balki huquqiy va ijtimoiy adolat masalasidir. O'zbekistonda bu yo'nalishda sezilarli siljishlar bor, biroq uni to'liq joriy etish uchun tizimli yondashuv, qonunchilikni yanada kuchaytirish va жамоатчиликни жалб қилиш зарур. Inklyuziv ta'lim orqali biz "hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyilini hayotga tatbiq etamiz. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni inklyuziv yondashuvning huquqiy asoslarini kafolatlaydi. Shu bilan birga, ilmiy-uslubiy, innovatsion, raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy inklyuziv pedagogik modelni yaratish – fuqarolik jamiyatining barqaror taraqqiёti, inson kapitalining ўсиши va ta'lim tizimi samaradorligini оширишга хизмат қилади. Inklyuziv ta'lim faqat ijtimoiy tenglikni emas, balki mamlakat taraqqiyotida har bir fuqaroning faol иштирокини ҳам таъминлайди.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. YUNESKO. Inclusive Education: Guidelines for the Inclusion of Children with Disabilities. 2009.
2. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni, 2019.
3. BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi, 2006.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021.
5. Kattabekov N. Ta'lim tizimida inklyuziya: imkoniyat va muammolar. – Toshkent, 2022.